



IMOM BUXORIYNING HADIS ILMIGA QO'SHGAN HISSASI

G'ofurov Sardor Yigitali o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Bank ishi fakulteti 1-bosqich talabasi

gafurovsardor2063@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14888039>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 12-yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 18-yanvar 2025 yil

KEY WORDS

Imom Buxoriy, SAHIHI BUXORIY, Mug'era, Qur'an, 210-xijriy yil, tijorat, 10000 dirham, Muhammad Ibn Ismoil, Nishopur, Samarqand, Abu Mansur Ibn Jibrel, Poykant, Xartang, Buxoro amiri, fitna, halollik, ilm.

ABSTRACT

Bu maqola Imom Buxoriyning siyrati, hadis ilmini o'rganishdagi say harakatlari, Imom Buxoriy haqidagi buyuk ulamolarning fikrlari hamda Imom Buxoriyning biz insonlar qaysi tomonlari bilan o'rnak bo'lishi va eng asosiysi hadis ilmiga qo'shgan hissasi tog'risida bir qator fikrlarni o'z ichiga oladi.

Kirish. Imom Buxoriy hadis ilmida Amir-ul Mo'minin, Allohning kalomi Qur'an kitobidan keyingi o'rinda turgan eng to'g'ri kitob "SAHIHI BUXORIY"ning sohibi, to'liq ismlari Muhammad Ibn Ismoil Ibn Ibrohim Al Buxoriy Raxmatullohi Alayhdir. Imom Buxoriy o'zining SAHIHI BUXORIY kitobini 16 yil davomida yozadi. Shuningdek aytganki shu kitobni o'zim va alloh o'rtasida hujjat bo'lishini xohladim. Islom tarixi Imom Buxoriyday boshqa birovni ko'rgan emas. U hammadan hadisni yodlash borasida ham, rivoyatdagi puxtalikda ham, hadislarini izlashdagi sabr bobida ham birinchilikda bo'lgan. Bu inson hadis ilmida talabalardan hattoki uni ustozlaridan uzib ketdi.

Asosiy qisim. Ulamolardan biri aytadi, Imom Buxoriyday kishini avval ko'rgan emasman, go'yoki u faqat hadis ilmini o'rganish uchun yaralgan edi. Uning katta bobosi Mug'era asli majusiy bo'lgan va Buxoroga ko'chib kelib Buxoroning amiri Yamonni qo'lida kalima keltirib musulmon bo'lgan. Otasi Ismoil Ibn Ibrohim ahli ilm bo'lib kibor ulamolarning suxbatida bo'lgan kishilardan edi. Afsuski u kishi Imom Buxoriy yoshligida vafot topadi va Al Buxoriy yoshligidanoq yetim qoladi. Otasi vafot etarkan "Bor molu dunyoyimda na xarom yo'l bilan na shubhali nopok yo'l bilan topilgan 1 dirhamni bilmayman". Imom Buxoriy otasining vafotidan keyin 3 yoshida ko'zlari ojiz bo'lib qolib, bitta onasini qo'lida qoldi. Onasi ota qoldirgan barcha mol dunyoni Buxoriyning ilmi uchun sarflaydi. Soliha ona o'z farzandining ko'zlari ojiz bo'lib qolganidan o'ksinib ko'p yig'laydi va duo iltijo qiladi, va kunlardan bir kun uning tushiga Ibrohim Alayhisalom kiradi va aytadiki, ko'p duo qilib yig'laganingdan Alloh o'g'lingni ko'zining nurini qaytardi deydi, shu tariqa Muhammad Ibn Ismoil yana ko'rishni boshladi. Al Buxoriy 9 yoshligidan katta Shayxlar orasida yuradi va u yerda hadislar o'qib boshlaydi. Ibn Ismoil judayam kuchli zehn va xotira egasi bo'lib, minglab hadislarini yodlash uchun bir marta eshitish kifoya qilgan. U dastlab Buxoroda ta'lim oldi va bu bilan cheklanib qolmay, 16 yoshida ilm talabi bilan Basraga, keyin Nishopur hamda Rayga safar qildi va u yerdagi jamiki ulamolarni hadislarini yod oldi, ammo baribir hadis yerlarining markazi arab yerlari edi,

xususan, Iroq. Shuningdek, 210- xijriy yil oxirlarida Al Buxoriy Iroqga safar qildi va u yerdagi mashoyiqlardan ilm o'rgandi. Al Buxoriy aytadiki, Bog'dodga 8 marta kirdim va har kirganimda Imomi Ahmad Ibn Hambal huzuriga kirdim va suxbatida o'tirdim. Bu zot Al Buxoriyning ustozlari edi va Buxoriy ustozidan ilmlarni o'rganib ketmoqchi bo'lganda Ibn Hambal aytadiki, ilmni va uni odamlarini tashlab Xurosonga ketasizmi. Ya'ni ustozlari uni shu yerda qolib ilmini ziyoda qilishini xohlardi. Shu tariqa Al Buxoriy Makkaga keldi, u yerdagi ilm egalari hadislarni o'rgandi, keyin Madinaga keldi, u yerdagi ilmlarni ham oldi. Buxoriy ustozlardan hadis eshitarkan, bilmagani chiqsa darrov yodlab olardi, agarda biladigani chiqsa qaysi yo'l bilan qaysi san'at bilan ekanligini bilib olardi. Keyinchalik Misrga safar qildi shuningdek, Shomga. Deyarli Ummati Muhammadiya bor bo'lgan barcha hadislarni yodlab bo'lgan edi. U yod olgan jamiki hadis ilmlarini o'zining eng ulug' kitobi "SAHIHI BUXORIY"ga jamlaydi. Allohning kitobidan keyingi o'rinda turadigan eng to'g'ri kitob, odam bolasini qo'lidan yozilgan kitoblarni eng to'g'risi aynan shu kitob edi. Imom Buxoriy o'zining Sahihi Buxoriy kitobini ta'rif qilishida aytadiki, "16 yoshligimda Isxoq Ibn Roxuvayyaning huzurida edim va shu yerda o'tirganlardan biri dedi, payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollollohi alayhi vassalamni hadislarini sunnatlarini o'zida jamlagan kichkinagina bir muxtasar kitob yozsangizlar" dedi, aynan shu gapni eshitganimda shu ish qalbimga o'rnashib qoldi va shu kitobni jamlashga kirishdim. Ya'ni Imom Buxoriy "Sahih Buxoriy"ni 16 yoshligidan yozishni boshlagan, va shu gaplarni keltirgan, "Sahih Buxoriy"ni 600 ming hadis ichidan ajratib oldim va undagi har bir hadisni yozishdan avval g'usul qildim va ikki rakat nomoz o'qidim va kitobga faqatgina sahih bo'lgan hadislarni kiritdim hamda cho'zilib ketmasligi uchun ayrim sahih hadislarni unga yozmadim. Muhammad Ibn Abu Xotim Imom Buxoriydan so'radi, siz kitoblaringizga kiritgan barcha hadislarni yoddan bilasizmi, Buxoriy javob qildi, kitobga nimani yozgan bo'lsam hammasi yodimda va har bir kitobimni 3 martadan yozib chiqqanman va shu bir kitobga 16 yil vaqtim ketgan. Imom Buxoriy hadis jamlashdagi say harakatlari haqida shunday deydi, "men boshqalarga o'xshab hadis yozmaganman agar bir kishidan hadis yozgan bo'lsam, imkon bo'lsa shu kishini ismini, nisbatini, hadisni tushunishini va bu hadisni kimdan o'rganganligini so'raganman". Ya'ni Imom Buxoriy hadisni tog'ridan tog'ri eshitmagan kishilardan olmaganlar va bu shart tarixda faqatgina Imom Buxoriyda mavjud. Abbos Abduriy aytadilar, "Muhammad Ibn Ismoil kabi hadisni diqqat bilan talab qiladigan boshqa kishi ko'rmadim". Abdul Asqardan rivoyat qilinadi, Samarqandda payg'ambarimiz hadisini talab qiladigan, ahli hadis bo'lgan ilmiy kishilardan 400 tasi 7 kun davomida Imom Buxoriyni sinab adashtirmoqchi bo'ladi. Shomliklardan bo'lgan hadislarni tanlashdi va ularni Iroqliklarni hadislar bilan aralashtirishdi, ularning hammasi sahih hadis lekin aralashtirilgan edi. Imom Buxoriy ularni har birini adashmasdan to'g'rilab aniq qilib aytib berdi. Imom Buxoriy hikmat sohibi, nur egasi edi, uning ilm yo'lida aytgan so'zlari shunday, "muhtoj bo'lingan narsa borki u bas Qur'anda bor", ya'ni inson nimaga muxtoj bo'lsa Qur'anda bor sunnatda bor. Imom Buxoriy o'zi haqida aytadiki, "sahih hadisni saqim hadisdan ajratmagunimcha, Fiqh, Ray, Mantiq kitoblarini o'qimagunimcha, ko'rmagunimcha hadis aytgani o'tirmadim" yana keltiradiki, "dunyo zikridan bo'lgan so'zlarni ham allohga hamd aytish bilan boshlayman". Imom Buxoriy buyuk hikmat sohibi ekanligining yaqqol namunasi qilib Muhammad Ibn Isroilning shu so'zlarini o'qish kifoya, "Alloh meni g'iybat qilganim uchun jazolamaydi degan umiddaman". Bilamizki, g'iybat eng katta gunohlardan biridir va Imom Buxoriy biror marta g'iybat qilmagan, ya'ni insonlarga berayotgani bahosi ham hikmatli bo'lgan. Masalan Imom Buxoriy biror kishidan hadis olish mumkinmasligini bilsa kazzob yoki yolg'onchi demasdi, aytardiki u munkar-ul hadis(so'zi inkor qilingan) yoki u kishi haqida mulohaza bor. O'zining shogirtlariga ham shuni o'rgatgan, "agar men bir kishi haqida mulohaza bor dedimmi, bilingki bu kishi muddaham va yolg'onchi ekan". Ma'lumki har bir sohada biror peshqadam odamga nisbatan hasad qilguvchilar bo'lgani kabi Muhammad Ibn Ismoilga ham usha davrda hasad qilganlar talaygina edi. Kunlardan bir kun Imom Buxoriy Nishopurga borib jomeda o'tirganlarida Amri Ibn Zarora hamda Isxoq Ibn Rohivayalar Nishopurning amiriga meni

kelganligimni, hadis ilmidagi bilimimni xabarini yetkazishdi, Imomdan ilm olishlikni taklif qilishganda Nishopur amiri to'g'ri kelgan begona kishidan ilm olmayman degan javobni beradi. Shuningdek, Imom Buxoriyga hasad qilguvchilarning u xatto namozni ham to'g'ri o'qiy olmaydi degan gaplari u zotning qulog'iga yetib kelganida, eshitib turib kuldi va men haqimda shunday degan bo'lsa, xohlasam o'rnimdan turib ketmasdan 10000ta faqat nomoz haqidagi hadislarini aytib beraman deydi. Xusayin Ibn Muhammad aytadilar, Imom Buxoriyning ko'p yaxshi sifatlar bore di va ularga yana 3 xil sifat qo'shilgan edi. Ulardan birinchisi oz gapirar edi, ikkinchisi odamlarni qo'lidagi narsalarga ta'ma qilmas edi, uchinchisi odamlar bilan ovora bo'lmas edi.

Imom Buxoriy tijorat bilan shug'ullanar edi. Albatta u kishining tijorati hallollik va pokizalik ustiga qurilgan edi, savdosida halol inson bo'lgan. Kunlarning birida o'zining o'g'lidan bir mol keldi, savdogarlar shu molni sotib olishlik uchun 5000 dirham foyda taklif qilishdi. Xaridorlarning bu berayotgan foydasi oz edi va Imom ertaga kelinglar bir o'ylanib ko'ray dedi. Ertasi kuni boshqa xaridorlar kelishdi va 10000 dirham foyda taklif qilishdi, shunda Imom Buxoriy kecha kelganxaridorlarga molni 5000 dirhamga beraman deb niyat qilganman dedi. Shuningdek, Imom Buxoriyga berilgan ta'riflardan eng go'zali shuki, Ibn Xuzayn buyuk muxaddislardan biri aytadilar, men bu samo ostida Muhammad Ibn Ismoil dan ko'ra Rosululloh sollollohi alayhi vassallamning hadisini bilimdonrog'i va hofizrog'i bo'lgan boshqa birovni ko'rmadim. Shu tariqa Imom Buxoriyni davro'g'i doston bo'lib ketdi. Lekin bu Buxoriyga nisbatan fitna bo'lishiga sabab bo'ldi. Kunlardan bir kun Ibn Ismoil o'z yurtiga Buxoroga keldi u yerda xalq uni judayam chiroyli intiqlik bilan kutib oldi, kelishi bilan Imom ustida pullar sochishdi. Ammo bu Buxoro amiriga yoqmasdi va xalqqa Imom Buxoriydan uzoqroq yurishini takidlar, xalq esa amir fikriga e'tibor qaratmasdi, aksincha Imomni himoya qilshdi. Buxoro amiri Ibn ismoilni yomon ko'rishiga sabab payg'ambarimiz hadislarini o'rganishlikka qiziqish amirda ham bor edi. Bir kuni Imom Buxoriy saroyga kelib unga va uning o'g'illariga Sahihi Buxoriyni kitobini alohida dars berishini talab qildi. Imom Buxoriy amirdan kelgan elchiga qarab men ilmni xor qilib uni hukmdorlarni eshigiga olib bormayman, ilm ziyorat qilinadi ziyorat qilmaydi dedi. Bu javobdan amir g'azablanib allomani shahardan chiqarib yuborishlik yo'lini izlay boshlaydi, bir guruh nopok kimsalarni topib Imom ustidan yolg'on tuxmatlarni tarqatishni buyurdi. Shunday qilib Buxorada Ibn Ismoil haqida buxtonlar ko'paydi va shunday amir Imomdan bu shaharni tashlab chiqib ketishlikni talab qildi. Imom Buxoriy qarshilik qilishi mumkin edi, ammo meni deb xalq o'rtasida ixtilof bo'lishini xohlamayman dedi. Imom Buxoriy Buxorodan chiqib ketib Poykantga keldi, afsuski, Buxorodagi to'qilgan fitna Poykantga Imomdan oldin kelgan edi va xalq ikkiga bo'linib qolgan edi, yarimi Imomni oqlar edi, qolganlari esa qoralar edi. Poykantdagi ahvolni ko'rib Muhammad Ibn Ismoil bu yerda ham qolishni istamadi. Samarqand ahli Imom Buxoriy bilan bog'liq Buxoro va Poykantdagi vaziyatni biladi va Imomni chaqiradi, muqim bo'lib istiqomat qiling bizni ichimizda deyishdi va Imom Buxoriy rozi bo'ldilar va Samarqanddagi Xartang qishlog'iga kelib joylashdi, u yerda uning qarindoshi Abu Mansur Ibn Jibrel uyida turdi va vafot topdi. Imom Buxoriydek zot o'z yurtiga sig'madi va allohga duo qildi, " ey allohim qanchalar keng bo'lgani bilan bu dunyo menga torlik qilib qoldi, endi meni o'z rahmatinga qabul et"

Xulosa. Muhammad Ibn Ismoil Ibn Ibrohim Al Buxoriy Raxmatullohi Alayh hadis ilmlarini mukammal o'rganib unga rioya qilguvchilardan edi. U umri davomida ilm o'rganib uni targ'ib qilib uni himoya qilib yashadi. Biz bugungi kunda shunday ajdodlarimizni say harakatlarini qadirlovchi uni davom ettiruvchi, aqlan va ruhan yetuk farzandlar bo'lishimiz lozim. Biz Imom Buxoriydan har tomonlama andoza olsak arziydi. Agarda biz jamiki sohalarda xususan, tijorat, ta'lim va boshqa sohalardagi yondashuvimizda Imom Buxoriydik harakat qilsak dunyoda O'zbekistondan peshqadam biror mamlakat qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://youtu.be/Rp0iMYIjFnc?si=yh7ovIGf9ChvMkp3>



INNOVATIVE
ACADEMY